



“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR” ASARIDAGI ANTROPONIMLAR

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'tkir Xoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlarini misollar orqali bilib oilamiz. Shu paytgacha antroponimlar juda ham ko'p o'rganilib kelinmoqda lekin badiiy asarlardagi antroponimlar haligacha to'liq o'rganib chiqilmagan hisoblanadi. Biz ushbu maqolamizda shunga mavzuga to'xtalib imiy izlanishlar asosida bayon qildik.

Kalit So'zlar: antroponim, ism, laqab, taxallus, familya, tilshunoslik, antroponimika.

O'zbek onomastikasi masalalari o'rganish uchun birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch” asarida bildirilgan quyidagi fikr-mulohazalar asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qiladi: “Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo'lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzelari “S-1”, “S-2”, “S-15” degan, odamda. hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinishini eslaylik. Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo'lgan, odamzotni tarixiy xotiradan, Vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas. Antroponimika o'rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi kishi atoqli oti bo'lgan quyidagi onomastik vositalar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar - konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari (“qizi” “o'g'li”) yordamida nomlash.



5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida.

6. O'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari

7. Tarixiy shaxslarning ismlari.¹

Ismlarga misollar: Hayotning barcha achchiq-chuchugini men bilan baravar totgan umr yo'ldoshim, maslakdoshim, farzandlarimning Onasi — *O'lmasxonga* bag'ishlayman. Uyga kir, Farruh! — dedim baqirib. To'ychiboy to'y qiladigan bo'ldi: sunnat to'y... To'ychiboy «yuz yigirma kilo oshning tagida bir kappir qolmaganini» gapirib yurdi... Qarasam, To'ychiboy tok so'ri tagida turibdi. Ozoda maysazorda tovuslar tamanno bilan kezadi. Buning uchun ulug' yoshdagi ajdodlarimga, professor Sharif Yusupovga, xalq akademigi Habibullaxon Qosimovga, qalamkkash do'stim, Toshkent tarixini teran o'rgangan Sirojiddin Ahmedovga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Men ushbu madrasani bunyod etgan mashhur Abulqosimxon eshonning evarasi ekanman... Ozod aka, Bahodir aka, Abdug'affor Rasulov, Begali Qosimov poezdga o'tirib jo'nadik. Farruh. Uch yashar. Bo'ldi, Farruh, uxla! Nima eysan, Yulduz, nokmi, shokoladmi? Hilola. To'rt yashar. Uyinglarda kim bor, Hilola? Xurshid. Besh yarim yashar. Sanashni bilasanmi, Xurshid? Doniyor. Uch yarim yashar. Azimjon. Olti yashar. Menmi? Men Azimman!

Taxalluslar: Xalqimizning atoqli adibi Abdulla Qodiriy shu madrasada tahsil ko'rgan. Unga ishtirok etishga o'tov egasi — Chimirvoy akani ham ko'ndirdik.

Tarixiy shaxslarning ismlariga mislolar: To'qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi. O'ninchi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotel-ning "Metafizika" asariga eng mukammal sharh yozib, "ikkinchi ustoz" unvonini oldi. O'n birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Er bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi. Ibn Sino medisina Qomusi — "Tib qonunlari»ni yaratdi. O'n to'rtinchi asr. Sohirqiron Amir Temur Evroosiyoning yarmini tasarrufga oldi. Ahli ilm boshini silab, o'lmas obidalar yaratdi. O'n beshinchi asr. Ulug'bek 1019 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa»sini yozdi. O'n ettinchi asr. Shohjahon dunyodagi etgi mo'jizaning biri "Tojmahal"ni bunyod etdi. Amir Umarxon Qo'qon xoni bo'lgan. Nodirabegim — Umarxonning jufti haloli, malika bo'lgan. Kunlardan birida Umarxon bilan Nodirabegim arzimagan masalada gap talashib qolibdilar. Aslida-ku Nodirabegim haq ekan. Ammo Umarxon — baribir xonda! Umarxon toliqib, mudroqqa ketibdi... Qarasa, yonida Nodirabegim o'tirganmish... Andijonga! — debdi Nodirabegim kulimsirab. To'g'ri, olampanoh! — debdi Nodirabegim. Qizig'i shundaki, oradan oy o'tib, yil o'tib, Mulla Nasriddin safarga chiqibdi. Aytishlaricha, bu — ulug' ozarbayjon shoiri Samad Vurg'un ekan. 1865 yili

¹ Begmatov E A O'zbek tili antroponimikasi Toshkent-2013



Toshkentni qonga botirgan Chernyaev hujumiga qarshi xalqni oyoqlantirgan ulug' zotlar qatorida Hakim xo'ja qozi kalon, Domulla Solihbek Oxundlar bilan birga shahar va muzofotning eng e'tiborli eshoni bor. Biz "O'zbek antroponimikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyamizda ismni antroponimlarning asosiy kategoriyasi, laqab, taxallus va familiyalarni esa "qo'shimcha nominativ kategoriyasi" deb nomlagan edik. Chunki shaxsni nomlashning asosiy vositasi ismdir, boshqa usullar esa antroponimik nominasiyada uni to'ldiruvchi qo'shimcha vazifalarni o'taydi. Laqab bilan rus tilshunosligida ham ancha vaqtdan beri qiziqib kelishadi. Bu fikr turkiyshunoslikka ham tegishli. Keyingi yillarda turkiy tillar antroponimiyasiga bag'ishlab yozilgan ishlarning deyarli barchasida laqablar tadqiq qilindi.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E A O'zbek tili antroponimikasi Toshkent-2013
2. Begmatov E A O'zbek ismlari ma'nosi Toshkent-2007
3. Yo'ldoshev B O'zbek onomastikasi masalalari-Samarqand-2011

² Begmatov E A O'zbek tili antroponimikasi Toshkent-2013